

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI «MISIS»NING  
OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**BEKPO‘LATOV JAVLON MUSTAFOQULIYEVICH**

**TARKIBIDA NODIR VA RANGLI METALL BO‘LGAN  
TEXNOGEN CHIQINDILARNI KOMPLEKS QAYTA  
ISHLASHNING ILMIY ASOSLARI**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim  
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора технических наук (DSc)**

**Content of dissertation abstract of doctor of Science (DSc) of technical sciences**

**Bekro‘latov Javlon Mustaquliyevich**

Tarkibida nodir va rangli metall bo‘lgan texnogen chiqindilarni kompleks qayta ishlashning ilmiy asoslari ..... 3

**Бекпулатов Жавлон Мустафокулиевич**

Научные основы комплексной переработки техногенных отходов, содержащих цветные и благородные металлы..... 29

**Bekpulatov Javlon Mustafokulievich**

Scientific bases of complex processing of technogenic waste containing non-ferrous and precious metals..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 61

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI «MISIS»NING  
OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**BEKPO‘LATOV JAVLON MUSTAFOQULIYEVICH**

**TARKIBIDA NODIR VA RANGLI METALL BO‘LGAN  
TEXNOGEN CHIQINDILARNI KOMPLEKS QAYTA  
ISHLASHNING ILMIY ASOSLARI**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim  
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Olmaliq – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/T624 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.misis.uz](http://www.misis.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta‘lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Xudoyarov Suleyman Rashidovich</b> texnika fanlari doktori, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Ermatov Ziyadulla Dosmatovich</b> texnika fanlari doktori, profeesor <b>Vohidov Baxriddin Raxmiddinovich</b> texnika fanlari doktori, dotsent <b>Tolibov Behzod Ibrohim o‘g‘li</b> texnika fanlari doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>«O‘zbekiston texnologik metallar kombinati» AJ</b>

Dissertatsiya himoyasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filiali huzuridagi DSc.22/30.12.2019.T.98.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 25 dekabr soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57; E-mail: [info@misis.uz](mailto:info@misis.uz).

Dissertatsiya bilan Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24-34-D raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 12 dekabr kuni tarqatilgan.  
(2024 yil 12 dekabr №24 raqamli reestr bayonnomasi).



**F.Ya.Umarov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**G.S.Nutfulloyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

**Sh.Sh.Zairov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oltin va mis tarkibli rudalarni boyitish va qayta ishlashdan hosil bo'lgan texnogen chiqindilarning texnologik sxemalarini takomillashtirish, yangi texnologik va texnik yechimlarni ishlab chiqish yo'li bilan samaradorligini oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada oltin va mis narxining tobora ortib borishi texnogen chiqindilarning qayta ishlashga jalb qilinishi va mineral xomashyo bazasini kengaytirilishi uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Oltin va mis tarkibli texnogen chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish masalalarini hal etishda katta muvaffaqiyatlarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashni takomillashtirishda ularni mahalliy sanoat korxonalarini chiqindilaridan olingan reagentlarni qo'llab flotatsiya va gravitatsiya usullarida boyitish, texnologiyalarini yaratish bilan bog'liq masalalar oxirigacha o'z yechimini topmagan. Shu munosabat bilan, o'rganilayotgan texnogen chiqindilarni an'anaviy va yangi mahalliy reagentlarni qo'llab flotatsiya usulida boyitish sxemalarini ishlab chiqish, oltin va mis tarkibli texnogen chiqindilarni boyitish va qayta ishlashning turli usullarini ishlab chiqish, boyitish fabrikalari va metallurgik zavodlarda boyitish samaradorligini oshirish, oltin va mis tarkibli texnogen chiqindilarni an'anaviy reagentlar yordamida qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda metallurgiya sanoatida mineral resurslardan unumli foydalanish, texnogen chiqindilarni qayta ishlash usullarini yaratish, boyitish fabrikalari texnogen chiqindilarini fizik, kimyoviy va boyitiluvchanlik xossalarini tadqiq qilish, boyitishning texnogen chiqindilarini mineralogik tarkibini, fraksion va granulometrik tahlil qilish, boyitishning texnogen chiqindilaridan mis, oltin, kumush tarkibli boyitma olish texnologiyasini tadqiq qilish va foydali qazilmalarni boyitishdan hosil bo'lgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tarkibida nodir va rangli metall bo'lgan texnogen chiqindilarni kompleks qayta ishlash hamda texnogen chiqindilar tarkibidan oltin va mis tarkibli boyitmalar olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda konchilik sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. Bu borada «Olmaliq kon metallurgiya kombinati» AJ mis boyitish fabrikasi (MBF), Angren oltin saralash fabrikasi (AOSF) va Xondiza kon boshqarmasi texnogen chiqindilaridan rangli metallarni ajratib olishning yangi texnologiyalarini yaratish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida<sup>1</sup> «Respublikada tog'-kon korxonalarini mineral-xomashyo

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori

bazasidan foydalanish samaradorligini oshirish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, texnogen chiqindilarni kompleks qayta ishlashga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni, 2018-yil 27-apreldagi «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari» to‘g‘risidagi PQ-3682-son, 2019-yil 17-yanvardagi «Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari» to‘g‘risida PQ-4124-son, 2021-yil 24-iyundagi «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar» to‘g‘risidagi PQ-5159-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Oltin va mis boyitish fabrikalaridan hosil bo‘lgan texnogen chiqindilarini boyitish va qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan keng qamrovli ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan: Universidad de Concepción (Chili), Pukyong National University (Janubiy Koreya), Institute of Technology (Hindiston), University of Belgrade (Serbiya), Bandung Institute of Technology (Indoneziya), Aalto University (Finlandiya), Ural federal universiteti (Rossiya), University of Science and Technology Beijing, Wuhan University of Science and Technology (Xitoy), Montana Tech of The University of Montana (AQSH), University of Toronto (Kanada), Ukraina metallurgiya akademiyasi (Ukraina), Tohoku University (Yaponiya), Qarag‘anda davlat sanoat universiteti (Qozog‘iston), The University of Queensland (Avstraliya) va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Boyitish fabrikalarida hosil bo‘lgan texnogen chiqindilarni qayta ishlab, uning tarkibidan foydali komponentlarni ajratib olish hamda fizik-kimyoviy jarayonlarini aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, shu jumladan: mis boyitish fabrikalari chiqindilarini past haroratda tiklab magnit separatsiya qilish orqali temir birikmalarini ajratib olish usullari ishlab chiqilgan (University of Science and Technology Beijing); oltin tarkibli texnogen chiqindilarni tanlab eritmaga o‘tkazish va qayta ishlash texnologik sxemasi ishlab chiqilgan (Pukyong National University, Institute of Technology); mis tarkibli texnogen chiqindilarning tarkibi tahlil qilingan va flotatsiya usulida boyitish

---

<sup>2</sup> Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi [www.atlasrockbit.com](http://www.atlasrockbit.com), <http://www.varelintl.com>, [www.dissercat.com](http://www.dissercat.com), <http://vbm.ru>, <https://www.amazon.com>, <http://www.mirknigi.ru> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

texnologik sxemasi ishlab chiqilgan (Ural federal universiteti, University of Science and Technology Beijing); texnogen chiqindi tarkibidagi komponentlarni boyitmaga o'tishi aniqlangan va boyitish jarayonining takomillashtirishning matematik modeli ishlab chiqilgan (University of Toronto, Ukraina metallurgiya akademiyasi); oltin tarkibli texnogen chiqindilarni boyitish uchun konsentratsion stolning texnologik parametrlari ishlab chiqilgan (Bandung Institute of Technology, Aalto University); oltin, kumush va mis tarkibli texnogen chiqindilarni qayta ishlashni haroratga, jarayon vaqtiga va reagent sarfiga bog'liqligi asoslangan (Universidad de Concepción va Toshkent davlat texnika universiteti).

Jahonda qo'rg'oshin-rux, oltin va mis tarkibli rudalarni boyitish va qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan texnogen chiqindilardan qimmatbaho komponentlarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqishga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda: oltin va mis tarkibli texnogen chiqindilarning granulometrik tarkibini o'rganish; gravitatsiya va flotatsiya usulida boyitishga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash; minerallarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalarini aniqlash; moddiy tarkibini tahlil qilish va konsentrat olishning energiya va resurs tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish; texnogen chiqindilardan qimmatbaho komponentlarni flotatsiya, gravitatsiya, sianlash usulida boyitmaga o'tkazishning optimal texnologik sxemasini ishlab chiqish; mis, qo'rg'oshin-rux hamda oltin tarkibli texnogen chiqindilarni qayta ishlashda mahalliy reagent qo'llab flotatsiya usulida boyitish texnologiyasini ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qo'rg'oshin-rux, oltin va mis tarkibli rudalarni boyitish fabrikalarida hosil bo'lgan texnogen chiqindilarni boyitish jarayoni ustidan ilmiy izlanishlar olib brogan olimlardan: M.I.Panfilov, P.S.Xarlashin, B.F.Belov, A.I.Trosan, A.I.Zaysev, A.M.Bigeyev, Y.S.Yusfin, A.I.Gamey, N.V.Naumkin, V.I.Tixonov, E.I.Ostrov, A.N.Krutilin, M.N.Kuxarchuk, O.A.Sichevalar va boshqalar tomonidan qora metallurgiya sanoatida temir boyitmalarini uglerod tarkibli tiklovchilar yordamida tiklab, metallashgan qumoqlar (okatish) olishga erishilgan.

Shuningdek, rudalarni boyitish natijasida hosil bo'lgan texnogen chiqindilarni qayta ishlashda resurs-tejamkorlikni ta'minlash, texnogen chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish asosida ularning ishonchliligi va samaradorligini oshirish muammolari yuzasidan o'zbek olimlari K.S.Sanakulov, A.A.Yusupxodjayev, A.S.Hasanov, M.G.Sagdiyeva, A.U.Samadov, M.M.Yakubov, X.A.Ahmedov, E.L.Popov, S.T.Matkarimov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va bir qator samarali natijalarga erishilgan.

Tahlillarga ko'ra texnogen chiqindilarni qayta ishlash sohasida ko'plab ilmiy natijalarga erishilishiga qaramay, hali yechimini topmagan muammolar ham ko'p. Jumladan, texnogen chiqindilar tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni ajratib olishning resurstejamkor chiqindisiz texnologiyasini ishlab chiqish muammosi mavjudligini ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan texnogen chiqindilarni dastlab tahlillar o'tkazish yanchish, gravitatsion, flotatsion usullarda boyitish va texnik

talab darajasidagi boyitma olish texnologiyasi ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar Respublikamiz sanoat-korxonalari uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Ilmiy-tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 63-172-son «Olmaliq KMK» AJ texnogen hosilalaridan noyob, tarqoq, nodir, rangli va qora metallar moddiy tarkibini aniqlashning tahlili» va PZ-20170929768-son «Qimmatbaho komponentlarni ajratib olish maqsadida mis ishlab chiqarish shlaklarini qayta ishlash texnologiyasini yaratish» mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** «Olmaliq KMK» AJ Angren oltin saralash va mis boyitish fabrikalari hamda Xondiza kon boshqarmasi boyitish fabrikalardan chiqqan texnogen chiqindilar tarkibidan oltin va mis tarkibli boyitmalar olish hamda qayta ishlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

«Olmaliq KMK» AJga Angren oltin saralash fabrikasi, Mis boyitish fabrikasi va Xondiza kon boshqarmasi boyitish fabrikalari texnogen chiqindilarini qayta ishlashning mavjud texnologiyalari va xossalari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish;

«Olmaliq KMK» AJ Angren kon boshqarmasi, Mis boyitish fabrikalari va Xondiza kon boshqarmasi boyitish fabrikalari texnogen chiqindilarini fizik, kimyoviy va boyitiluvchanlik xossalari tahlil qilish;

boyitishning texnogen chiqindilarini mineralogik tarkibini, fraksion va granulometrik tahlil qilish;

boyitishning texnogen chiqindilarini va mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlil qilish;

boyitishning texnogen chiqindilaridan mis, oltin, kumush tarkibli boyitma olish texnologiyasini tadqiq qilish;

foydali qazilmalarni boyitishdan hosil bo'lgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqarishga tatbiq etish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida «Olmaliq KMK» AJga Angren kon boshqarmasi, Xondiza kon boshqarmasi va Mis boyitish fabrikalari texnogen chiqindilari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** boyitish fabrikalarining mis va oltin tarkibli texnogen chiqindilarini boyitish texnologiyasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan, IQ-spektroskopiya, rentgenfazaviy (RFT), differensial-termik (DTT) tahlillar, namuna tarkibidagi metallar bo'yicha miqdoriy tahlil usullari va tahlilning boshqa standart usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

texnogen chiqindilardan oltinni ajratib olish va qayta ishlash darajasini mavjud usullarga nisbatan 15-20% ga oshirish imkonini beruvchi reagent tartiblari

va ishlov berish usullarini o'z ichiga olgan texnologik jarayon parametrlari ishlab chiqilgan;

metall miqdori past bo'lgan xomashyodan samarali tarzda mis tarkibli minerallarni ajratib olish imkonini beruvchi mis tarkibli texnogen chiqindilarni qayta ishlash uchun moslashtirilgan flotatsiya usuli ko'llanilgan texnologik sxema ishlab chiqilgan;

qayta ishlash jarayoni samaradorligini oshirishga va uning sharoitlarini jadallashtirish imkonini beruvchi texnogen chiqindilardagi qimmatbaho komponentlarni konsentratga o'tishining kinetik va termodinamik qonuniyatlarini tavsiflovchi, ularning murakkab mineral tarkibi va texnologik parametrlarining ta'sirini hisobga oluvchi matematik model ishlab chiqilgan;

mahalliy reagentning yuqori selektivligi va murakkab chiqindilarni boyitishda samaradorligini namoyon etuvchi hamda import qilinuvchi reagentlar uchun xarajatlarni kamaytiradigan va texnologiyaning ekologik barqarorligini oshiradigan mahalliy PS-1 reagenti qo'llanilib, tarkibidagi misning miqdori 0,1-0,12% bo'lgan texnogen chiqindilardan flotatsiya usulini qo'llab tarkibida 7-8% mis saqlovchi boyitma olishga erishilgan;

tarkibida 10% qurg'oshin hamda 15% ruh saqlovchi boyitmalar olish va murakkab mineral tarkibli ikkilamchi resurslarni sanoatda qo'llash uchun yangi imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, qurg'oshin va ruh tarkibli texnogen chiqindilarni flotatsiya usuli bilan boyitish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

oltinni ajratib olish darajasini, uning granulometrik tarkibi va mineral shakli kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda oshirish imkonini beruvchi oltin tarkibli texnogen chiqindilarni boyitish uchun qo'llanilgan konsentratsion stolning optimal texnologik parametrlari aniqlangan;

qayta ishlash parametrlarini o'zgartirish hamda qimmatbaho komponentlarni ajratib olish darajasini oshirish imkonini yaratuvchi oltin, kumush va mis tarkibli texnogen chiqindilarni qayta ishlash samaradorligi, jarayonning harorati vaqti va reagent sarfiga kompleks bog'liqligi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilaridan qimmatbaho komponentlarni flotatsiya, garvitatsiya, sianlash usulida boyitmaga o'tkazishning optimal texnologik sxemasi va konsentratsion stol parametrlari ishlab chiqilgan;

mis boyitish fabrikalari texnogen chiqindilari tarkibidan qimmatbaho komponentlarni flotatsiya usulida boyitishning optimal texnologik sxemalarini tanlash natijasida, tarkibida 0,1-0,12% mis birikmasi bo'lgan texnogen chiqindilardan boyitma olingan;

qimmatbaho flotoreagentlarni mahalliy sanoat chiqindilari asosida tayyorlangan flotoreagentlar bilan qisman almashtirish natijasida flotatsiya jarayonidagi sarflanadigan xarajatlar va boyitish jarayoni mahsulotlari tannarxi kamaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aniq qo'yilgan vazifa asosida olingan mahsulotlarning fizik va texnologik xossalarini o'rganishda zamonaviy IQ-spektroskopiya, elektron mikroskop,

rentgenografiya va differentsial-termik tahlil usullari yordamida aniqlangan natijalar bilan taqqoslash orqali izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oltin va mis boyitish va eritish natijasida hosil bo'lgan texnogen chiqindilarni yana boyitish hamda ularning parametrlarini boshqarish yo'li bilan mis, oltin, kumush va boshqa qimmatbaho komponentlar ajratishining eng qulay samarali texnologik sxemasini ta'minlaydigan, qayta ishlash usullari ishlab chiqishga va tekshirishga, buning asosida matematik model ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oltin va mis tarkibli rudalarni boyitishdan hosil bo'lgan texnogen chiqindilarni boyitishning texnologik sxemasi va dastgohlar zanjir sxemasini ishlab chiqish yordamida qo'shimcha konsentrat olish hamda qoldiq mahsulotlarni chiqindixonaga yo'naltirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarkibida nodir va rangli metall bo'lgan texnogen chiqindilarni kompleks qayta ishlash usullarini ilmiy jihatdan asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

texnogen chiqindilaridan qimmatbaho komponentlarni flotatsiya, gravitatsiya, sianlash usulida boyitmaga o'tkazishning optimal texnologik sxemasi va konsentratsion stol parametrlari «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ Angren oltin saralash fabrikasida joriy etilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023-yil 27-oktabrdagi 63-618-son ma'lumotnomasi). Natijada, oltin va kumush birikmalarini o'z ichiga olgan graviboyitma olish imkonini bergan;

mis, qo'rg'oshin-rux hamda oltin tarkibli texnogen chiqindilarni qayta ishlashda mahalliy reagent qo'llab flotatsiya usulida boyitish texnologiyasi «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ Angren oltin saralash fabrikasida joriy qilingan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023-yil 27-oktabrdagi 63-618-son ma'lumotnomasi). Natijada, an'anaviy usulda boyitishga nisbatan 20% iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bergan;

mis boyitish fabrikasining 0,1-0,12% mis tarkibli texnogen chiqindilarini flotatsiya usulida qayta ishlash texnologiyasi «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ Mis boyitish fabrikasida joriy qilingan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023-yil 27-oktabrdagi 63-618-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarkibida 7-8% mis birikmasi bo'lgan boyitma olishga erishish imkonini bergan;

qo'rg'oshin-rux tarkibli texnogen chiqindilarni flotatsiya usulida boyitish texnologiyasi «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ Xondiza kon boshqarmasida joriy qilingan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023-yil 27-oktabrdagi 63-618-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarkibida 10% rux hamda 13% qo'rg'oshin birikmalari bo'lgan boyitma olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotlarning natijalari 1 ta Respublika va 7 ta Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasi dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shundan 12 ta Respublika va 5 ta xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 185 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo'yicha tavsiyalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Foydali qazilmalarni boyitishda texnogen chiqindilarning hosil bo'lishi va ularni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida jahonda konchilik va metallurgiya sanoatining jadal rivojlanishi yangi turdagi metall va metalli birikmalarni ajratib olish bilan birga turli texnogen chiqindilar hosil bo'ladi. Dunyoda mineral xomashyoni qazib olish va iste'mol qilish sur'atlari doimiy ravishda o'sib bormoqda va sayyoramiz aholisining har yili 1,0-1,3% ga o'sishi bilan mineral xomashyo ishlab chiqarish hajmi ham ortib bormoqda. Texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlili keltirilgan. Mamlakatimizda tog'-kon sanoati texnogen chiqindilaridan foydalanish darajasi pastligi, ularni chuqur integratsiyalashgan kam chiqindili qayta ishlashga yetarlicha jalb qilinmaganligi muammoning asosiy sabablaridan biri hisoblandi. Texnogen chiqindilarni qayta ishlash va boyitish uchun yangi va innovatsion texnologiyalarini sanoatga joriy qilish muammoning texnologik yechimi bo'lib, texnogen chiqindilardan yetarli darajada foydalanish yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. Tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan texnogen chiqindilarni ajratib olish uchun flotatsion, gravitatsion, gravitatsion-flotatsion kombinatsiyalashgan sxemalardan foydalanish muammoning asosiy yechimlardan biri hisoblanadi. Bu sxemalarni tanlash asosan texnogen chiqindilarning, fizik, kimyoviy va boshqa xossalardagi farqlarga asoslanishi bilan izohlanadi.

Qimmatbaho komponentlarning chiqindi bilan yo'qolishi nafaqat foydali komponent olish miqdorining pasayishi, balki keyin qayta ishlash va ulardan foydalanishni murakkablashtiradi hamda texnogen chiqindilarni qayta ishlash, saqlash, shuningdek, saqlashning tabiiy, texnologik jarayonlari, mineral xomashyoning mineralogik va geokimyoviy tuzilishini o'zgartiradi.

Texnogen chiqindilar foydalanishning sifat va miqdoriy xususiyatlariga qarab turli yo'llar bilan qayta ishlanishi mumkin. Bu esa o'z navbatida resurslarni tejash va kon-metallurgiya sanoati va boshqa sohalarni mineral xomashyo bazasi bilan ta'minlash imkonini beradi. Mavjud konchilik sanoati korxonalarini texnogen

chiqindilarini qayta ishlash mineral-xomashyo bazasini mustahkamlash va undan foydalanish samaradorligini oshirish, texnogen chiqindilarning resurs sig'imini kamaytirish va atrof-muhitni yaxshilashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **«Obyektlarni tanlash hamda boyitish fabrikalari texnogen chiqindilarini qayta ishlash metodikasi»** deb nomlangan ikkinchi bobida «Olmaliq KMK» AJ ga qarashli mis boyitish fabrikasi, Xondiza kon boshqarmasi va Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilarini kompleks qayta ishlashning resurs tejovchi texnologiyalarini shakllantirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, mineralogik, granulometrik tarkibi va texnologik xususiyatlariga qarab ularni turli xil jarayonlarga bog'liqligini o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot olib borish obyektlari sifatida tanlab olindi. Oltin va mis tarkibli rudalarni boyitish fabrikalari texnogen chiqindilari istiqbolli va qayta ishlash mumkin bo'lgan obyektlardir. Ma'lumki, tog'-kon sanoati korxonalarining mineral-xomashyo salohiyati nafaqat ochilgan va o'zlashtirilayotgan konlar ko'rinishidagi mavjud xomashyo zahiralari bilan, balki noan'anaviy resurslar: chiqindixonona, balansdan tashqari, oksidlangan va boshqa rudalar bilan ham tavsiflanadi. Ruda konlarini qayta ishlash chiqindilari toifasiga - boyitish va metallurgiya ishlab chiqarishi mahsulotlari (chiqindi, shlak, kek va boshqalar) kabi texnogen konlar taalluqli. Tog'-kon sanoati korxonalarini hududida mineral resurslarni jadal ekspluatatsiya qilish va qayta ishlash atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa atrof-muhitning beqarorlashishiga olib keladi va bu hududning keyingi ishlab chiqarish rivojlanishini o'z tasirini ko'rsatadi. Texnogen konlar tuzilishining aniqlangan xususiyatlari va qonuniyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganish va o'zlashtirishning yagona ilmiy-metodik yondashuvini ishlab chiqish mumkin. Tabiiy konlardan farqli o'laroq, texnogen konlarni o'rganishning eng muhim vazifasi texnologik xossalarni baholash va shu asosda texnogen xomashyoning metall bo'lmagan qismidan foydali komponentlarni olish va foydali mahsulotlar olishning texnologik sxemalarini ishlab chiqishdir. Shuning uchun texnogen chiqindilar tarkibi, texnogen chiqindilar tarkibidagi foydali komponentlar miqdori va ularning fizik-mexanik xususiyatlari hamda fazoviy taqsimoti qonuniyatlarini aniqlash muhim vazifalardan biridir. Texnogen chiqindilar tarkibi va metall tarkibli balans zaxiralarni aniqlash va hisoblash uchun tabiiy konlardagi kabi shart-sharoitlar ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin. Texnogen chiqindilar va balansdan tashqari zaxiralarni tahlil qilish va boyitish uchun qo'shimcha ko'rsatkichni e'tiborga olish muhim omil hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar texnogen chiqindilarni gravitatsion, flotatsion usullardan foydalanib boyitishga qaratilgan. Shu sababli tadqiqotlarda texnogen chiqindilarning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xossalarni o'rganishda IK-spektroskopiya, elektron mikroskop, granulometrik tahlil va boshqa turli zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotni olib borishda yordamchi dastgohlar sifatida: maydalagichlar, tegirmonlar turli o'lchamdagi laboratoriya g'alvirlari, konsentratsion stol, flotatsion mashinalardan foydalanildi.

Texnogen konlar tuzilishining aniqlangan xususiyatlari va qonuniyatlaridan


kelib chiqib, ularni o'rganish va o'zlashtirishning ilmiy-metodik yondashuvini ishlab chiqish mumkin. Tabiiy konlardan farqli o'laroq, texnogen konlarni o'rganishning eng muhim vazifasi ularning texnologik xossalarini baholash va shu asosda texnogen xomashyoning rudali qismidan foydali komponentlarni olish va foydali mahsulotlar olishning texnologik sxemalarini ishlab chiqishdir. Shuning uchun texnogen chiqindilar tarkibi va fizik-mexanik xususiyatlariga ko'ra ularning fazoviy taqsimoti qonuniyatlarini aniqlash zarur. Texnogen konlarni o'rganish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: 1) texnologik baholash ishlari; 2) rudali va rudasiz texnogen xomashyodan kompleks foydalanishning maqsadga muvofiqligi va texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash; 3) texnogen obyektini texnogen kon toifasiga o'tkazish; 4) texnogen xomashyoning texnologik turlari va navlarini taqsimlash; 5) qayta ishlashning texnologik sxemalarini ishlab chiqish 6) atrof-muhitga ta'sir qilish xususiyati va darajasini aniqlash; 7) ishlab chiqarishning texnologik sxemalarini ishlab chiqish; 8) kon ishlarining to'liq va sifatli bajarilishi ustidan nazorat qilish. Shuni ta'kidlash kerakki, bir o'rganish bosqichidan ikkinchisiga o'tish dastlabki bosqich yakunida ijobiy texnik-iqtisodiy baholash o'tkazilgan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning «**Xondiza kon boshqarmasi texnogen chiqindilarining moddiy tarkibini tadqiq qilish va kompleks qayta ishlash texnologik sxemasini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida Xondiza konlari texnogen namunalarning moddiy tarkibi va mineralogik xususiyatlarini o'rganish, texnologik tadqiqotlar o'tkazish va Xondiza konlaridan polimetall rudalarini boyitish texnologiyasini ishlab chiqish shu bilan birga texnogen chiqindi tarkibini o'rganish maqsadida namunalarni o'rtacha hisoblagandan so'ng, spektral, kimyoviy, massa-spektral va boshqa turdagi laboratoriya tahlillari uchun har bir texnologik namunadan o'rtacha namuna olindi. Olingan namunalarning granulometrik tahlili o'rganilayotgan hududda yiriklik sinflarining notekis taqsimlanishini ko'rsatadi: nisbatan yirik o'lchamdagi texnogen chiqindilar to'g'ondan 40 m masofagacha, kichik o'lchamdagi texnogen chiqindilar esa 70-100 m masofada joylashishi aniqlandi. Texnogen chiqindilar tarkibidagi foydali komponentlarning maksimal miqdori chiqindixonaga to'gonidan 40 metrgacha bo'lgan oraliqda uchrashi aniqlandi. To'g'ondan chiqindixonaga markaziga masofa oshishi bilan texnogen chiqindi o'lchami kichrayishi va uning tarkibidagi metall miqdori kamayishi aniqlandi.

Tanlangan namunalarda o'tkazilgan qo'rg'oshin, rux va mis minerallarining fazaviy tahlili to'g'ondan chiqindixonaga markaziga yaqinlashgani sari texnogen chiqindilardagi sulfidli birikmalar sonining kamayishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xondiza kon boshqarmasi boyitish fabrikasi texnogen chiqindisining turli xil joylardan olingan 3 ta namunaning sinflarga ajralishida yanchilishning vaqtiga bog'liqligi xususiyatini o'rganish uchun texnogen chiqindini 40 ml turdagi laboratoriya sharli tegirmonida qattiq zarra: suyuqlik: sharlarning (Q:S:Sh)=1:0,5:6 nisbatida laboratoriya tajribalari olib borildi. Yanchilgan ruda -0,074 +0 mm li sinf bo'yicha ho'l usulda elandi. Ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda Xonjiza kon

boshqarmasidan olingan texnogen chiqindilarni flotatsiya usulida boyitish natijalarining texnologik ko'rsatkichlar quyidagicha: shuni aytish mumkinki, tex chiqindilardan olingan namunani dastlabgi flotatsiya qilish jarayonida mis, kumush, rux va qo'rg'oshinng boyitmaga ajralishi 78,0, 64,2, 40,6, 72,1 % tashkil qiladi.




**1-rasm. Xondiza kon boshqarmasi chiqindixonasidagi chiqindilar tarkibidagi metallarning kesimlar bo'yicha miqdori**

1-jadval

O'rganilayotgan namunalarining yanchilishining vaqtga bog'liqligi


Namuna №	Chiqishi – 0,074 mm, % rudaning yanchilish vaqti, min.						
	0	3	5	7	10	12	15
1	42,4	51,4	61,2	68,5	82,2	88	96,5
2	39,8	63,5	68,9	71,6	83,8	90,2	97,8
3	40,2	53,5	62,5	69,4	83,5	88,5	95,2



**2-rasm. Ruda namunalarining -0,074 mm o'lchamda yanchilish ko'rsatkichining vaqtga bog'liqligi**

2-jadval

№ namuna	Chiqishi + 0,074mm, % rudaning yanchilish vaqti, min						
	0	3	5	7	10	12	15
1	47,6	48,6	38,8	31,5	17,8	12	3,5
2	61,2	36,5	39,1	28,4	16,2	9,8	3,2
3	59,8	47,5	37,5	31,6	16,5	11,5	4,8



**3-rasm. Ruda namunalarining +0,074 mm o'lchamda yanchilish ko'rsatkichining vaqtga bog'liqligi**

3-jadval

Xondiza kon boshqarmasidan olingan texnogen  
namunaning kimyoviy tahlil natijalari

Komponentlar	Miqdori, %	Komponentlar	Miqdori, %
S <sub>um</sub>	1,862	MnO	0,021
S <sub>sulfat</sub>	0,045	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	10,286
S <sub>sulfid</sub>	1,812	CaO	1,402
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> (umumiy)	5,420	MgO	1,014
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> (окис)	3,774	CO <sub>2</sub>	0,345
FeO	1,496	SO <sub>3</sub>	-
SiO <sub>2</sub>	69,044	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	0,042
H <sub>2</sub> O	0,104	PPP	2,232
K <sub>2</sub> O	2,124	Cu	0,140
Na <sub>2</sub> O	0,610	Zn	1,223
CaCO <sub>3</sub>	1,096	Pb	0,547
As	0,016	Au g/t	0,076
TiO <sub>2</sub>	0,101	Ag g/t	10,801


Boyitish mahsulotlari	Chiqish, %	Tarkibi, %				Ajralishi, %			
		Cu	Ag, g/t	Zn	Pb	Cu	Ag, g/t	Zn	Pb
Floto boyitma	5,15	1,34	183,25	6,9	5,23	78,0	64,2	40,6	72,1
Oraliq mahsulot 1	4,54	0,13	26,86	1,4	0,23	6,7	8,3	7,3	2,8
Oraliq mahsulot 2	4,54	0,11	24,96	1,15	0,17	5,6	7,7	6,0	2,1
Chiqindi	85,77	0,01	3,4	0,47	0,1	9,7	19,8	46,1	23,0
Dast. chiqindi	100,0	0,09	14,70	0,87	0,37	100,0	100,0	100,0	100,0

*Xonjiza kon boshqarmasidan olingan texnogen namunani kollektiv flotatsiya sxemasi orqali boyitish.* Polimetall qo'rg'oshin-rux rudalarini kollektiv flotatsiya qilish tajribalari sxema bo'yicha amalga oshirildi, jumladan, rudani 55% -0,074 mm gacha yanchish va asosiy flotatsiyani o'tkazish, asosiy flotatsiya boyitmasining mahsulotini o'lchamga qayta maydalash. 85% -0,074 mm va nazorat flotatsiya operatsiyasini o'tkazish orqali amalga oshirildi. Selektiv flotatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy sharti jarayonni ortiqcha reagentlarsiz amalga oshirishdir. Mis-rux tarkibli rudalarini flotatsiyalashda bo'lgani kabi polimetall rudalarni ham depressiya qilish uchun depressorlardan foydalanish kerak; sianid, rux sulfat, eruvchan mis tuzlari mavjud bo'lganda, maydalashga kam miqdorda natriy sulfid qo'shiladi va uning sarfi 0,5-1,5 kg/t ni tashkil qilish mumkin. Soda  $Ca_2+$  kalsiy kationlarini bog'lash va ishqoriy muhitni  $Ph = 7,5-9$  ni hosil qilinishi kerak bo'ladi.

Dissertatsiyaning «**Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilar tarkibini tahlil qilishning nazariy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hozirgi kunda sulfidli rudalarni flotatsiya usulida boyitish keng tarqalgan, demak, texnogen chiqindilarning ham hosil bo'lishi juda katta miqdorni tashkil qilmoqda.

Ushbu turdagi xomashyoning o'ziga xos xususiyati namuna olish jarayoni katta kuch talab qilmasligidir. Namuna olinadigan obyektidagi rudalar sirtida joylashgan bo'lib, ixcham va shunga mos ravishda qazib olish uchun katta xarajatlarni talab qilmaydi hamda bu ko'p vaqt talab qiladigan qimmat jarayon - monolit massivdan tog' jinslarini qazib olish (skvajinalarni burg'ilash, zaryadlash va portlatish hamda yuklash)ning yo'qolishiga olib keladi. Chiqindilarni hosil qilish jarayonida yuzaga keladigan bir qator jarayonlar ulardagi qoldiq metallarning konsentratsiyasiga olib keladi, ammo mavjud bo'lgan ikkilamchi rudalarning har bir obyektini shakllantirish jarayoni juda murakkab vaziyatni shakllantiradi va bu vaziyatni o'rganish juda murakkab. Ma'lumki, boyitish paytidagi foydali komponentlar yo'qotilishining asosiy sabablari fraksiya o'lchamlarining yirikligi (+0,074 mm) bilan bog'liq bo'lib, bu yerda ruda minerallari ruda hamda noruda minerallari bilan birikmalarda uchraydi.

Ilmiy-tadqiqot ishida texnogen chiqindilarni boyitishda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish asosida boyitish usullaridan biri sifatida flotatsiya qabul qilindi. Flotatsiya usulida boyitish qo‘llanilayotgan fabrikalar juda ko‘p miqdorda reagentlar sarf qilinmoqda. Flotatsion reagentlar qo‘llanilishi maqsadiga qarab turlicha bo‘ladi ular to‘plovchilar, so‘ndiruvchilar, faollashtirgichlar, ko‘pik hosil qiluvchilar va muhitning regulyatorlari.



**4-rasm. Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilar tarkibidagi metallarning kesimlar bo‘yicha miqdori**

Foydali qazilmalarni boyitish fabrikalarida keng qo‘llaniladigan reagentlar yig‘uvchi va ko‘pik hosil qiluvchilar hisoblanadi.

Ushbu reagent og‘ir rangli metallar minerallarini flotatsiya usulida boyitishda samarali reagentlar bo‘lgan sulfidril kollektorlari turiga kiradi. Ular boshqa flotatsion reagentlarga nisbatan bir muncha qimmatroq hisoblanadi.

Ksantogenatlar ksantogen kislotaning tuzlari bo‘lib, uning umumiy formulasi quyidagi ko‘rinishga ega: R-O-C -S-Me bunda: R-uglevodorod radikali, gomologik qatordagi radikallardan biri, Me-kation K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup> yoki H<sup>+</sup>.

Ksantogenatlar o‘ziga xos hidga ega bo‘lgan qattiq kristalli moddalar bo‘lib, ularda kam miqdorda merkaptanlar ham mavjud.

Namlik ta‘sirida ksantogenatlar gidrolizlanib, ksantogen kislotalarni hosil qiladi. ksantogenatlarning gidrolizi muhitning Ph darajasining pasayishi, haroratning oshishi va konsentratsiyaning pasayishi bilan kuchayadi. Ishqoriy muhitda ksantogenatlarning suvli eritmaları ancha barqaror hisoblanadi. Hozirgi vaqtda asosan ksantogenatlar Rossiya va Xitoyda ishlab chiqariladi.

Foydali qazilmalarni boyitish fabrikalarida ko‘pik hosil qiluvchi reagentlar ham asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ko‘pik hosil qiluvchi moddalar mineral zarrachalarni yuzaga ko‘tarib bera oladigan ko‘p miqdordagi mayda pufakchalarni hosil qila olishi kerak. Ko‘pik hosil qiluvchi reagentlarni ham mahalliyashtirish bo‘yicha bir qanch olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Hozirgi kunda ishlab chiqarishda T-92 markali ko‘pik hosil qiluvchi reagentlar sulfidli oltin va mis tarkibli rudalarini flotatsiya qilishda keng qo‘llanilmoqda.

Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilarining kimyoviy tarkibi 5-jadvalda keltirilgan. Chiqindilarining asosiy komponenti SiO<sub>2</sub> bo'lib, o'rtacha 76,56% qiladi (70 dan 78% gacha o'zgarib turadi)ni tashkil. U asosan kvars shaklida bo'lib, gidroslyuda va boshqa minerallar tarkibiga ham kiradi. Texnogen chiqindi tarkibidagi oltin o'rtacha 0,49 g/t, kumush – 6,4 g/t ni tashkil qiladi.

5-jadval

Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilarining kimyoviy tarkibi

Komponentlar	Namunalar									O'rtacha miqdori
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
SiO <sub>2</sub>	76,15	78,74	76,12	78,24	70,86	79,34	73,7 3	78,59	77,28	76,56
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	3,84	2,70	3,32	2,41	3,52	3,34	5,34	2,72	3,0	3,35
TiO <sub>2</sub>	0,64	0,36	0,52	0,37	0,49	0,48	0,85	0,37	0,41	0,50
MnO	0,25	0,18	0,24	0,17	0,26	0,25	0,34	0,19	0,23	0,23
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	8,56	10,19	7,79	10,38	7,54	7,08	7,49	10,07	10,2	8,82
CaO	3,87	2,52	3,24	2,70	3,62	3,67	4,72	2,51	2,98	3,31
MgO	0,94	1,19	0,61	1,04	0,55	0,50	0,56	1,03	0,91	0,81
K <sub>2</sub> O	4,35	3,59	4,41	3,74	4,17	3,92	5,31	3,72	3,98	4,13
V <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	0,072	0,040	0,064	0,029	0,059	0,048	0,09 3	0,034	0,026	0,052
So	0,55	0,39	0,46	0,44	0,47	0,52	0,60	0,43	0,36	0,47
BaO	0,56	0,17	0,25	0,38	0,40	0,69	0,71	0,21	0,39	0,42
SrO	0,053	0,024	0,034	0,031	0,040	0,045	0,07 3	0,027	0,030	0,079
Au, g/t	0,46	0,48	0,45	0,50	0,52	0,50	0,48	0,60	0,44	0,49
Ag, g/t	6,1	7,5	6,3	5,1	7,3	5,8	5,3	7,7	6,6	6,4

Hozirgi vaqtda qoldiqlar bilan birga yo'qolgan oltin va kumushni qayta tiklash uchun flotatsiya-sianidning kombinatsiyalangan sxemasi tavsiya etiladi. Olingan kollektiv flotatsion konsentrat joyida, sianidlash yo'li bilan qayta ishlanishi yoki asosiy yakuniy mahsulot sifatida zavodda olinadigan konsentrat bilan birga oqim sifatida qayta ishlash zavodiga eritish uchun yuborilishi mumkin.

Quyida reagent rejimi va tavsiya etilgan sxemaning asosiy komponentlarining xarakteristikalarini keltirilgan: Flotatsiyadan oldin chiqindi qoldiqlari 80% sinf - 0,074 mm gacha yanchiladi. Tegirmonga(yanchish jarayoniga) 150 g/t soda va (Chirchiq) zavodi chiqindisidan olingan yangi PS-1 reaktivi 150 g/t miqdorida beriladi.

Flotatsiya sxemasi bo'yicha AOSF qoldiqlarini qayta ishlash ko'rsatkichlari  
(uzluksiz jarayon prinsipi asosidagi tajribalar)

Boyitish mahsulotlari	Chiqish, %	Tarkibi, g/t		Ajrashishi, %	
		Au	Ag	Au	Ag
Birlashtirilgan qoldiq namunasi AOSF(№1-9)					
Boyitma	1,59	18,0	202,6	58,32	50,34
chiqindi	98,41	0,21	3,2	41,68	49,66
Dast. chiqindi	100,0	0,49	6,4	100,0	100,0
Birlashtirilgan qoldiq namunasi					
Boyitma	1,70	20,21	183,6	59,3	53,8
chiqindi	98,30	0,24	2,7	40,7	46,2
Dast. chiqindi	100,0	0,58	5,8	100,0	100,0

1. Asosiy flotatsiya:

Flotatsiya vaqti - 12 min, Bo'tana zichligi 25-28% qattiq, Reagent sarfi (g/t), Butil ksantagenat kaliy (BKK) - 20g/t; ko'pik hosil qiluvchi T-92- 40g/t, Nazorat Flotatsiyasi, Flotatsiya vaqti - 8 min, Bo'tana zichligi -20-24% qattiq, Reaktiv sarfi (g/t): BKK -10; T-92-20, Qayta tozalash, Flotatsiya vaqti -5 min, Bo'tana zichligi: 12-16% qattiq, Flotatsion konsentratni quyultirish, Mahsulotning zichligi - 35%, Flotatsion konsentratni dastlabki sianidlash, bo'tana zichligi - 35% qattiq, Vaqt - 4 soat, bo'tanadagi natriy sianidning dastlabki konsentratsiyasi - 0,1%, ohak -0,02%, NaCN - 2,2 kg/t flotatsion konsentrat (37 g/t boshlang'ich qoldiq), Ohak sarfi 1,8 kg/t flotatsion konsentrat (27 g/t qoldiq), 1. Sorbsion yuvish, Bo'tana zichligi - 35% qattiq, Yuvish vaqti - 12 soat, AM -2B sinfidagi smola yuklash. «A» - bo'tana hajmining 0,5%, Smola sarfi – 20 g/t konsentrat (0,3 g/t ruda), tegirmon qoldiqlarini sianidlash uchun ilgari ishlayotgan fabrika rejimiga muvofiq amalga oshirildi. Chiqindilarni faqat flotatsiya usulida qayta ishlashda flotatsion konsentrat asosiy konsentrat bilan birga eritish uchun qayta ishlash zavodiga yuboriladi, keyin esa misni ajratish jarayonida qimmatbaho metallar olinadi.

Angren oltin saralash fabrikasi texnogen chiqindilarini flotatsiya qilish uchun amaldagi fabrika bilan bir xil reagentlar ishlatilgan, asosan: butil ksantogenat kaliy, verdon moyi, T-92, shuningdek, soda kabi reagentlardan foydalanildi. Ilmiy tadqiqot tajribalarini ketma-ket o'tkazgandan so'ng, optimal reagent rejimi tanlandi (7-jadval). Texnogen chiqindilarni yanchish 80% -0,074 mm yiriklikda amalga oshirildi.


Asosiy flotatsiyada reagentlar sarfi (g/t); soda - 150; BKK-50; T-92 -40; BKK-20.

Ilmiy-tadqiqot ishlari davomida olingan natijalarni taqqoslash orqali shuni aytish mumkinki, yangi namunalardan olingan chiqindilarni flotatsiya qilishda oltinni konsentratga ajralishi 41,55% dan 54,83% gacha, konsentrat tarkibidagi oltinning miqdori esa 12,15 g/t dan 14,88 g/t gacha oshishi aniqlandi.

## AOSF texnogen chiqindilarni flotatsiya usulida boyitish natijalari

Boyitish mahsulotlari	Chiqish,%	Tarkibi, g/t		Ajrashishi,%	
		Au	Ag	Au	Ag
Birlashtirilgan qoldiq namunasi AOSF (№1-9)					
Boyitma	2,5	14,88	99,8	54,83	43,9
Oraliq mahsulot	2,0	1,48	16,3	4,36	5,7
Chiqndi	95,5	0,29	3,0	40,81	50,4
Dast. chiqindi	100,0	0,68	5,7	100,0	100,0
Boyitma	2,60	12,15	120,2	41,55	44,28
Oraliq mahsulot	4,55	1,03	10,5	6,18	6,77
Chiqndi	92,85	0,43	3,7	52,27	48,95
Dast. chiqindi	100,0	0,76	7,06	100,0	100,0

Konsentratning «flotatsiya+ sianidlanish» sxemasi bo'yicha oltinni boyitmaga ajratib olish 52,81-54,92% ni, kumushni boyitmaga ajratib olish esa 38,16-41,14% tashkil qiladi. «Flotatsiya + konsentrat eritish» sxemasiga ko'ra, oltinni ajratib olish 55,99-56,93% ni tashkil qiladi; kumushni ajratib olish 45,31-48,42%, ni tashkil qilishi aniqlandi.



5-rasm. AOSF chiqindilari va boyitish mahsulotlarini sianlash sxemasi

Flotatsion konsentratlarning sianidlanish ko'rsatkichlari

Tarkibi, g/t				Eritmaga ajralishi, %	
Dastlabgi konsentrat		Sianlashdan hosil bo'lgan qoldiq			
Au	Ag	Au	Ag	Au	Ag
Flotokonsentrat					
18,0	202,6	1,7	49,0	90,56	75,81
Flotokonsentrat (ayni vaqtda olingan)					
20,2	183,6	1,49	43,2	92,52	76,47

Dissertatsiyaning «**Mis boyitish fabrikasi texnogen chiqindilarini qayta ishlashning nazariy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan beshinchi bobida «Olmaliq KMK» AJ ga qarashli 1,2-mis boyitish fabrikasi, Xondiza kon boshqarmasi va Angren oltin saralash fabrikasida hosil bo'lgan texnogen chiqindilarini boyitish gravitatsion, flotatsion va sianlash usullarida amalga oshirildi. Flotatsiya qoldiqlarini tekshirish boyitish usullari (gravitatsiya, flotatsiya) va gidrometallurgiya yordamida amalga oshirildi.

Texnologik namunalarning moddiy tarkibini o'rganish kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar, shuningdek, mineralogik tahlillar yordamida amalga oshirildi.

Texnogen chiqindilarni boyitishdan oldin texnologik namunalar 1:05:8 ga teng bo'lgan qattiq: suyoqlik: sharlar nisbati bo'yicha 40 ml laboratoriya tegirmonida yanchildi.

Texnogen namunalar va ularni boyitish mahsulotlarini gravitatsion boyitish 30KC markali konsentratsion stolida amalga oshirildi.

Flotatsiya usulida boyitish 240-FML markali 3 l hajmdagi laboratoriya flotatsion mashinalarida flotatsion mashinasida amalga oshirildi. Boyitishda hosil bo'lgan chiqindilar Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tasarrufidagi Geologiya fanlari universiteti «Mineral resurslar instituti» DM analitik tadqiqotlar bo'limi tomonidan mass-spektral(ICPI-MC), atom sorbsion va boshqa uskunalar yordamida tahlil qilindi.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti «Mineral resurslar instituti» DM analitik tadqiqotlar bo'limi tomonidan mass-spektral (ICP-MS), atom absorptsion va boshqa uskunalar yordamida boyitishda hosil bo'lgan texnogen chiqindilar tarkibi tahlil qilindi. Unga ko'ra, mis boyitish fabrikalari texnogen chiqindilarining spektral tahlili natijalari quyidagicha (%) ;Si>3, Al >3, Ca-1, Na>1, K>1, Fe>1, Mg>2, Ba 0.04, Mn-0,1, Cr-0.05, Ag-0,0003, Cu-0.1, Pb-0,015, Ni- 0,003 Ca-0,003.

Texnogen va sanoat chiqindilarning granulometrik, organik va boshqa qimmatbaho komponentlarning o'lchami sinflar bo'yicha taqsimlanishini aniqlash uchun elaklar orqali tahlildan o'tkazildi.

1-MBF Dastlabki texnologik namunalarning granulometrik tarkibi

